

O'ZBEK JADID XOTIN-QIZLARINING IBRATLI QISMATI BIZ UCHUN O'LMAS SABOQDIR

Yusupova Laylo Umidbek qizi

Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12649201>

Annotatsiya. O'zbek jadid xotin-qizlarining maqolalari va maktublari bilan tanishar ekanmiz, o'sha suronli yillarda yangi bir hayot qurish istagida katta yo'lga otlangan jadid bobolarimiz safidagi o'zbek ayollar qismati hukmron zamonning shafqatsiz mashinasi ostida yanchib tashlanganiga guvoh bo'lamiz. Biroq... ularning qisqa bo'lsa-da, ibratli qismati biz uchun o'lmas saboqdir!

Kalit so'zlar: Jadid, xotin-qizlar, Maryam Sultanmurodova, jurnalistika, Germaniya, sho'ro tuzumi, Matluba Muhammad xonim, ayol o'zbek advokati, Dilorom Yusupova, Xayriniso Majidxonova, qatag'on, mustaqillik.

THE EXEMPLARY FATE OF MODERN UZBEK WOMEN IS AN IMMORTAL LESSON FOR US

Abstract. As we read the articles and letters of modern Uzbek women, we witness that the fate of Uzbek women among our modern ancestors, who set out on the road to build a new life in those turbulent years, was crushed under the cruel machine of the ruling era. . However... their brief but instructive fate is an immortal lesson for us!

Key words: Jadid, women, Maryam Sultanmurodova, journalism, Germany, Soviet system, Ms. Matluba Muhammad, female Uzbek lawyer, Dilorom Yusupova, Khairiniso Majidhonova, repression, independence.

ОБРАЗЦОВАЯ СУДЬБА СОВРЕМЕННЫХ УЗБЕКСКИХ ЖЕНЩИН – БЕССМЕРТНЫЙ УРОК ДЛЯ НАС

Аннотация. Знакомясь со статьями и письмами современных узбекских женщин, мы становимся свидетелями того, что судьба узбекских женщин среди наших предков, вставших в путь построения новой жизни в те роковые годы, была раздавлена жестокой машиной правящая эпоха. Однако... их короткая, но поучительная судьба – это для нас бессмертный урок!

Ключевые слова: Джадид, женщины, Марьям Султанмурадова, журналистика, Германия, советская система, Матлуба Мухаммад, узбекская юристка, Дилором Юсупова, Хайринисо Маджидонова, репрессии, независимость.

KIRISH

“Ma'rifatparvar bobolarimiz mustaqillik uchun, xalqimiz emin-erkin yashashi uchun kurashganini bilamiz. Oxirgi yillarda butun jamoatchilimiz harakati bilan ularning nomlarini tiklash, muzeylarni yangi namunalar bilan to'ldirish, ijod maktablari tashkil etish bo'yicha ko'p ishlar qilinyapti. Bularning hammasi – odamlarga tarixiy adolatni, haqiqatni yetkazish uchun, xalqimiz u kunlarni bilsishi va hech qachon unutmasligi, bugungi kunlarning qadriga yetishi uchun...”. Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ona yurtimiz, millatimiz ravnaqi, ilmu ma'rifati yo'lida jon bergan bobolarimiz va momolarimiz nomlarini takror-takror

tilga olgan daqiqalarda ularning ezgu g‘oyalari qalbimizda tirilgani sayin o‘zimiz ham ana shu buyuk kuch - Ona Vatan sha’ni, qadri uchun ilm olishimiz, kurashishimiz, yashashimiz va ijod qilishimiz kerakligini yanada chuqurroq anglay boshlaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir” [1; 2]. Binobarin, jadid ma’rifatparvar bobolarimizning Vatan taraqqiyoti, millat ravnaqi yo‘lidagi sa’y-harakatlarini yanada keng tadqiq etish, jadidchilikning holati va istiqbollarini har tomonlama o‘rganish muhim ahamiyatga kasb etadi.

Samarqanddagi Shohi Zindaga borsangiz, Amir Temur davri maqbaralari ichida qabrlarning eng ko‘pi ayollarga tegishli ekaniga guvoh bo‘lasiz. Ayniqsa, tariximizda xotin-qizlar nomidagi madrasalar soni juda ko‘p. Zukko momolarimiz azaldan ilm-fanga homiylik qilishni o‘zlariga faxr deb bilgan. Sobiq tuzum davrida o‘zining vatanparvarligi, bilimi, faolligi, intiluvchanligi va tashabuskorligi bilan ajralib turgan va bu yo‘lda mash’um tuzumning qatag‘onlik siyosati gidobiga tortilgan Maryam Sultonmurodovani ham ana shunday momolarimiz qatoriga qo’shishimiz mumkin. Sultonmurodova Maryam Jumaniyozovna 1905-yil 13-fevralda Xiva shahrida tug‘ilgan. Maryam Sultonmurodova 1922-1923-yillarda Berlin universiteti qoshidagi olti oylik tayyorlov kursida o‘qiydi. 1924-yil Darmstadt shahridagi “Viktoriya” o‘qituvchilar seminariyasiga imtihon topshiradi. Darhaqiqat, xorij ta’limi Maryamxonga oson kechmadi.

Germaniyada tahsil olgan Sattor Jabborning Ertoy nomi bilan “Turkiston” gazetasining 1924-yil 2-sentabr sonida e’lon qilingan maqolasida bu to‘g‘rida shunday yoziladi: “...Xivalik Maryamxon moddiy tomonidan yaxshi ta’min qilinmagani uchun yo‘llarida ko‘p chatoqliklar ko‘radir. Chindan hayot xotini bo‘lmoq va Turkistonda qolg‘on opa-singillarimizning istiqboli uchun hech kim ko‘rsatmas qahramonlik qilib kelgan qimmatlik qizimizga Xorazm jumhuriyatimizning shunday sovuqqonlik bilan qarashig‘a Turkiston yoshlari taassuf etolmay turolmaydurlar” [2; 2]. “...O‘zbek jadid ayoli Maryam Sultonmurodovadan bolsheviklar nihoyatda hayiqar edi” [2; 3]. Jadid bobolarimiz safida turib yurt va millat ravnaqi yo‘lida kurashgan o‘zbek xotin-qizlarining zamondoshlaridan ustun jihatlari, fazilatlari qaysi voqeliklarda ko‘zga tashlanadi? Maryamxonning “aybi” nima edi? Ajdodlarimiz onalarga millat egasi sifatida qarashgan. Axir buyuk insonlarni ilm-ma’rifati yuksak onalar yetishtiradi. Millatimizda katta olima, shoira va faqiha ayollar ko‘p bo‘lgan. Jadid ayollar mavzusi esa alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Eng avvalo, jadid bobolarimiz o‘scha zamon kishilari ongida xotinqizlarga bo‘lgan alohida hurmat va ehtirom tuyg‘usini uyg‘ota bilgan. Ular millat farzandlarini “qo‘li to‘qmoq, boshi pahmoq” ezilgan ayollar tarbiyalashini istamagan. Xorazmlik haqgo‘y va taraqqiyat parvar inson Jumaniyoz Sultonmurodovning qizi. Jumaniyoz Sultonmurodov Harbiy tribunal rahbari, Xorazm Xalq Respublikasi Xalq komissarlari Kengashi raisi, Xorazm kompartiyasi kotibi lavozimlarida ishlagan. Maryam Sultonmurodova 1919- yilda Toshkentdagagi maorif maktab gimnaziyasini tamomlagach, oliy ma'lumot olish maqsadida 1920-1921-yillarda Orenburg tatar pedagogika

institutida o‘qigan. 1921-yil yozgi ta’tilda Xorazmga kelgach, Xorazm kompartiyasi Markaziy Kengashida avval adabiy bo‘limga, so‘ng ayollar bo‘limiga rahbarlikka tayinlanadi. Biroq og‘ir tarixiy sharoit va qiyinchiliklar unga ko‘nglidagidek ishlash imkonini bermaydi. Natijada 1922-yil iyulda Toshkentga kelib, O‘rtal Osiyo davlat universitetining ishchi fakultetiga hujjat topshiradi. 1922-yil oktyabrida Maryam Sultonmurodova Buxoro hukumati tomonidan Germaniyaga o‘qish uchun yuborilayotgan talabalar safiga kiritiladi. U 1924- 1926-yillar Darmstadt oliv seminariyasida ta’lim oladi. 1926-1927-yillarda esa Berlin yaqinida Potsdam shahridagi “Fraunshulle” maktabida amaliyot o‘tadi. 1927-yil yozgi ta’til vaqtida Xayriniso Majidxonova bilan birga 29-iyuldan 18- avgustgacha Parij shahrida bo‘ladi. Ularning Parij opera teatri oshxonasida Ahmad Naim va Mustafo Cho‘qaylar bilan 2-3 daqiqalik uchrashuvi keyinchalik qatag‘on etilishi uchun asosiy bahona bo‘lgandi [3; 12].

1927-yil kuzidan Maryam Berlin shahrining Vedding tumanidagi professor Finkelshteynning olti oylik hamshiralik kursini bitirib, 1928-yil SSSRga qaytgan. Maryam Sultonmurodova Vatanga kelishi bilan so‘roq, ta’qiblar boshlanib ketdi. Avvaliga hech joydan ish berishmadi. Faqat 1929-yil fevral oyida Germaniyada ta’lim olgan Badri Sayfulmulk yordamida O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash komissarligiga qarashli bolalik va onalikni asrash institutiga hamshira bo‘lib ishga kiradi. Maryam 1929-yilning oxirlarida Asqar Ahmadbekov bilan oila qurib, 1933-yilgacha Kattaqo‘rg‘onda yashagan. Eri qamoqqa olingach, 1933-yil Toshkentga qaytib, O‘rtal Osiyo davlat universitetiga ishga kirdi. Biroq 1934-yil yana ishsiz qoldi. So‘ng “Guliston” jurnaliga, 1936-yildan ayollarning “Yorqin turmush” jurnaliga adabiy xodim bo‘lib ishga kirdi. Maryam o‘zbek matbuotida o‘zining olmon adabiyotidan qilgan tarjimalari va ayollarning o‘tkir ijtimoiy muammolariga bag‘ishlangan maqolalari bilan elga tanila boshladи [4; 6].

1937-yil 13-sentyabr kuni Maryam Sultonmurodova Germaniyada o‘qigan, “Turkiston” josuslik tashkiloti a‘zosi deb, olti oylik norasida qizi Anora bilan qamoqxona azoblariga giriftor etilgan. Jazo muddati tugagach vatanga qaytib, Urganch tumani, Yangibozor fuqarolar yig‘inida hamshira bo‘lib ish boshladи. Biroq uning xursandchiligi yana uzoqqa bormadi. U 1949-yil 30-martda qayta qamoqqa olindi va bu gal ham eski “jinoyatlari” uchun uzoq Krasnoyar o‘lkasiga surgun qilingan [5; 1].

Maryam Sultonmurodova 1957-yil 2-avgustda SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi tomonidan oqlandi. Biroq u to‘liq oqlanganidan keyin ham ro‘shnolik ko‘rmadi. Ta’qib to‘xtamadi, sevgan sohasi jurnalistika bilan shug‘ullanish u yoqda tursin, uning matbuot sahifalarini o‘qishiga ham to‘sinqilik ko‘rsatildi. Bu haqsizliklar ham Maryamning irodasini sindira olmadi, o‘zini bir lahma bo‘lsin aybdor deb bilmadi. Haqiqatga ishondi, insoniyligini yo‘qotmadи. Bu bilan sho‘rolar tuzumining sharmandali tarixida inson matonati timsoli sifatida qoldi.

Maryam Sultonmurodova qalamiga mansub “Mehr ko‘zda”, “Kutilmagan baxt”, “Qalbim nidosi”, “Rahmat desinlar”, “Majnuntol”, “Karvonlar kelganda”, “Betamiz yigit” kabi ko‘plab maqola va ocherklar bu ayolning yuksak iqtidoridan darak beradi. Sobiq tuzum davrida faoliyat yuritgan ilg‘or fikrli o‘zbek xotin-qizlaridan yana biri – Matluba Muhammad xonimdir. Cho‘lponning 17 yoshli shogirdi Matluba Muhammad xonimning “Mudom Chorning qo‘lida ko‘p ezelgan millatim”, degan misralar bilan boshlanguvchi she‘ri o‘sha davrda sho‘rolar mamlakatini larzaga solgan ekan. Bu she‘r Yevropa matbuotida qayta-qayta nashr etilgach, sho‘rolar iste’dodli

shoira tahsil olayotgan Moskvadagi O‘zbek maorif institutini yopgan deyishadi... Darhaqiqat, bir shaxsiyatning isyonli ovozi butun bir mamlakatga zarba bergan.

Matluba xonimning “Kurtulush yo‘linda” nomli she’rini Sattor Jabbor nemis tiliga tarjima qilgach, ushbu o‘tli misralar mashhur bo‘lib ketadi. “Sho‘rolar qanchalik bosim qilmasin, adabiyotimiz Cho‘lponlarni yetishtirishda davom etmoqda, millatning orzu-maqsadlari shu fidoyi qizning qalbidan otilib chiqmoqda”, deydi faxr bilan tarjimon. Matluba Muhammad Marg‘ilonning mashhur jadid muallimi Nurmuhammad Dadamuhammedovning qizi bo‘lib, o‘z zamonasining iqtidorli yoshlaridan edi. Matluba 1926-yilgacha Qo‘qon bilim yurtida tahsil oladi. 1927- yil o‘qishini Toshkentdagi ayollar bilim yurtiga ko‘chirib, so‘ng opasi Mahbuba Dadamuhammedovaning izidan borib Moskvadagi O‘zbek maorif institutiga o‘qishga kirdi. U yerda mashhur shoir Cho‘lpon, Botu, Shokir Sulaymonlardan she’riyat sirlarini o‘rgandi. Shokirjon Rahimiyy, Qayum Ramazon, Abdulhay Tojievlar suhabatidan bahramand bo‘ldi.

Matluba, ayniqsa, o‘zbek talabalarining ma‘rifiy kechalarida Cho‘lponning vatanparvarlik mavzusidagi otashin she’rlarini o‘qib, o‘zi ham shu mavzuda she’rlar yozib juda mashhur bo‘lib ketgan. Uning bu shuhrati sho‘ro mamlakati chegaralaridan chiqib, Yevropa matbuotigacha borib yetadi. Va bu “mashhurlik” tufayli Moskvada “Комсомольская правда” gazetasida unga qarshi maxsus maqola chop etilgan va natijada u o‘qishdan haydalgan. Ko‘p o‘tmay Matluba ariza yozib, o‘ziga qo‘yilgan ayblarning tuhmat ekanligini isbotlab, o‘qishiga tiklanadi. Bunga bir tomonidan O‘zbekiston hukumatining aralashuvi, ikkinchi tomonidan, Matlubaning Italiya elchixonasiga fuqarolik so‘rab murojaat etishi ham sabab bo‘lgan [6; 1].

Sovet hukumati O‘zbek maorif institutini yopib muammoga yechim topgan edi go‘yo. Matlubaxon esa Toshkentga qaytmasdan Moskvadagi musiqa texnikumiga kirib o‘qishini davom ettirgan. 1929-yil Leningrad arxitektura instituti talabasi Vosiq Muhammedov bilan tanishadi. 1933-yil Toshkentga kelgan Vosiq Muhammedov Matluba uylanadi. Vosiq Muhammedov (1905- 1938) o‘z vaqtida Munavvarqorining “Namuna” maktabi iftixori, Fitratning “Chig‘atoy gurungi” ishtirokchisi, “Ko‘mak” uyushmasining faollaridan edi. U o‘z zamonasining tengsiz yigitlaridan bo‘lgan.

Vosiq Muhammedov va go‘zal Matlubaxon hayotlarining eng shirin damlariga ham Stalin boshliq totalitar tuzum o‘zining jirkanch panjasini soldi. 1937-yil 17-dekabr kuni qamoqqa olingen Vosiq Muhammedov 1938-yil 5-oktyabr kuni otib tashlangan. 1938-yil 17-yanvar kuni Toshkent tibbiyot institutining 3-bosqich talabasi Matluba Muhammad ham qamoqqa olinadi. 19-yanvar kuni ilk so‘roqda u turmush o‘rtog‘ining davlat va xalq oldida hech qanday aybi yo‘qligini bayon qildi. 1938-yil 21-fevralda ikkinchi so‘roqda opasi Mahbuba va uning turmush o‘rtog‘i, Germaniyada tahsil olib qaytgan kimyogar olim Sattor Jab borning ham aybsizligini ta’kidlagan.

Biroq qo‘yilgan birorta ayblovning isbotlanmaganiga qaramay, 1938-yil 17-may kuni Toshkent viloyat sudi tomonidan Matluba Muhammedova 10 yilga qamoqqa hukm etildi. U nohaq jazoni sovuq Sibirning Usolskiy lagerida o‘tadi. 1940-yil 26-fevralda Matluba Muhammedovaning arizasi qayta ko‘rilib, u oqlanishga erishdi. Vatanga qaytgach, urush yillarida Tibbiyot institutini tugatdi. 1937-yil arxitektura institutida talabalik yillarida qamalib ketgan ukasi Fatxulla urushdan so‘ng Vorkutadagi qamoqxonadan og‘ir ahvolda qaytadi. Matluba ukasi uchun Namanganga borib yashab, uni davolaydi. Faqat Stalin vafotidan so‘ngina ular Toshkentga qaytib keladilar. Matluba Muhammad ko‘p yillar xalq salomatligi yo‘lida halol mehnat qilib, el-yurt

hurmatiga sazovor bo'ldi. Bir paytlar Vatan ishqida, istiqlol orzusida otashin she'rlar bitgan Matluba Muhammedova O'zbekistonning mustaqillikka erishganini o'z ko'zlar bilan ko'rdi. Jiyalarining xotirlashicha, millat hurligi, mamlakat mustaqilligi e'lon qilingan kunlarda cheksiz quvonch yoshlarini to'kkani ekan. Matluba Muhammedova 1998-yili Toshkent shahrida olamdan o'tgan.

Xorijda o'qib kelgan qizlar nafaqat jadidlar falsafasiga, balki tashqi qiyofasiga ham ta'sir ko'rsatib, hatto yevropaliklarga o'xshab kiyina boshlashgan. O'sha davrda qadimchilar va an'anaviy odatlarga yangilik kiritadiganlar o'rtasida tortishuv va muhokamalar ko'p bo'lgan. Tabiiyki, bu jarayonda qadimchilar ko'pchilikni tashkil qilgan. Kiynish masalasidagi e'tirozlar, gazetaning bid'at ekani haqidagi targ'ibotlar, teatrni taqiqlash, turmush tarzidagi yangicha yashash imkonlarini rad etish, hatto sunnatda yo'q deb taomni qoshiq bilan tanovul qilishga ham qarshi fikrlar bildirishlar kun o'tgani sayin jiddiy bahsu munozaralarga sabab bo'lgani haqiqat...

Endi o'zingiz o'ylab ko'ring: jadidlarimiz Germaniyaga borganida ketmon chopib, dehqonchilik qilayotgan xalq vakili sifatida u yerdagi texnik yangiliklardan hayratlanishi tabiiy emasmi? U paytlarda yorg'ucheqda yoki suv tegirmonida un qilib yurgan, juvozlarda ishlab yurgan xalqimizning bu vakillari Yevropadagi ulkan kemalarni, zavod va fabrikalarni, osmonda uchayotgan uchoqlarni, poezdlarni ko'rib juda katta hodisa sifatida qarashgan. Bu yangiliklarning barchasi jadidlar dunyoqarashida inqilob yasaydi va bu ajabtovur voqeliklarni o'z maqolalarida yozib targ'ib etgani tabiiy hol. O'z yurtlarida ham shunday o'zgarishlar bo'lishini juda-juda istashgan. O'zlar faoliyat yuritayotgan har bir sohaga yangi nafas olib kirishga bel bog'lashgan. O'z maqolalarini jahon matbuotida chop ettirishadi. O'zlaridan oldin xorijga borib, taraqqiyot shabadalaridan bahramand bo'lgan Behbudiy va Ishoqxon to'ra Ibrat kabilarning gaplari yolg'on emasligiga amin bo'lishadi.

Jadidlar ruhiyatidagi o'zgarish va yangilanishlar esa o'z-o'zidan o'sha davr yoshlarida ham rag'bat uyg'otadi. Yuksalish uchun albatta, ilm-fan taraqqiyoti, fikr rivoji zarurligini his qilgan jadidlar qo'rqlmay harakat qila boshlagan. Jonlarini xatarga qo'yib bo'lsa-da, Yevropaga yaqinlashish tarafdori edi ular. Jadidlar o'zlar faoliyat olib borgan sohalarda yangi loyihalarni amalga oshira boshladilar. Jumladan, Xayriniso Majidxonovaning Germaniyadan qaytib kelib oq chekka qishloqlarda bolalar ko'rigini tashkil qilishi, tibbiyot borasidagi yangi davolash usullari ko'plab shov-shuvlarga sabab bo'lgan ekan. Birinchi huquqshunos ayol Dilorom Yusupova esa o'zbek huquqshunoslik maktabiga asos solgan ziylolar safidagi birinchi o'zbek ayoli edi.

1922-yilning kuzida Germaniyaga tahsil olish uchun Turkiston Respublikasi "Ko'mak" jamiyati tomonidan yo'llangan 16 nafar talaba orasida Xayriniso Majidxonova alohida ajralib turagan. Qizlar uchun oddiy maktabga qatnashning o'zi jiddiy qarshilikka uchrab turgan bir vaqtida ularning tahsil uchun uzoq xorijga yo'l olishi ziyo lilar tomonidan ulkan jasorat sifatida baholanadi. Hatto, yosh shoir Botu Xayrinisoning Germaniyaga ketayotgani munosabati bilan "Ehtiyot bo'l, go'zal qush" degan she'r bitadi. Xayriniso dastlab Miroboddagi yangi maktabda tahsil olib, rus va nemis tillarini o'rgangan. Uning dunyoqarashi shakllanishida Turkiston jadid matbuotining, shuningdek, bu vaqtida birinchi o'zbek xotinqizlar bilim yurtida o'qiyotgan opasi Oyposhshaxonning ham ta'siri katta bo'lgan.

1922-yili "Turkiston" gazetasida chop etilgan Xayriniso Majidxonovaning maqolasida endigina 17 yoshni qarshilagan qizning Vatan istiqboli haqidagi orzu-istiklari o'rin olgan.

XULOSA

Maqolani o‘qir ekansiz, eng avvalo, o‘tgan asrning boshida yashagan bir o‘zbek qizining tafakkuri naqadar kengligi, Vatan taqdiri oldida o‘zini qanchalik daxldor sezishi ko‘pchilikni hayratga solishi tabiiy. Muallif “Turkistonning dunyo savdo maydonida tutqon vaziyati XVII asrdan beri tuban darajada qolib keldi... XX asrning boshida ham qo‘srimiz bo‘lgan Eron xalqi siyosiy fikrlar bilan sug‘orilib, o‘z elida sanoat turg‘izish va chetlarning ta’siridan qutulish yo‘lida qon to‘kkan muddatda bizning Turkiston tinch uxlamoqda edi... Faqat Russiyadan temir yo‘l kelib, savdo maydoni kengaydi... Bundan ochiq anglashiladirki, bizning moziyimizni porloq qilg‘on – elimizdan o‘tgan karvon yo‘li bo‘lsa, istiqbolimizni porloq qilg‘uchi, elimizni jahon savdo maydonig‘a tutoshdirg‘uvchi ulug‘ temir yo‘ldir. Ular bizning savdomizni kengaytur, bizga boyliq va obodliq berur va o‘zimizga katta sanoat turg‘azishga imkon ochar”. Bu yerda o‘zbek ilm-fani, el-yurt farovonligi yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan bir necha ayol ziyolilarimiz haqida to‘xtaldik, xolos. Ular aslida ko‘p, ancha ko‘p edi. Afsuski, sobiq tuzum qatag‘oniga uchragan jadid bobolarimiz bilan yelkama-elka turib fidoyilik ko‘rsatgan bunday jadid ayollarimiz haqida hali deyarli hech narsa bilmaymiz.

Keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan milliy tariximizning muhim bir qismi bo‘lgan jadidchilik harakati va uning namoyandalarini o‘rganishga, targ‘ib etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Demak, yaqin yillarda bu boradagi barcha haqiqatlar oydinlashib, adolat qaror topishiga ishonamiz.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22- dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi. <https://president.uz/uz/lists/view/6941>
2. Sattor Jabborning Ertoy nomi bilan “Turkiston” gazetasining 1924-yil 2- sentabr soni 2-3-sahifa.
3. Bahrom Irzayev “Qamoq, surgun, ruhiy va ma’naviy ta’qiblarda o‘tgan sahro qizi”. “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining ijtimoiy-siyosiy gazetasi, 9-son 2023- yil. Milliy tiklanish gazetasi 12-13-sahifa.
4. Yo‘ldoshev Q. (2013). O‘zgarishlar doimiyligi // Sharq yulduzi, №3.
5. Irzayev Bahrom. “Xorijda o‘qigan o‘zbek jadid ayollarining “aybi” nima edi?”// <https://oyina.uz/uz/article/1468>
6. Irzayev Bahrom. “Josuslikda aybladilar. Bu tuhmat!” – Maryam Sultonmurodovaning surgundagi maktublari”.